

YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA QARATILAYOTGAN TA'LIMDAGI IMKONIYATLAR.

Tilovova Marjona

Shahrisabz davlat pedagogika institutining 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7634231>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlarga qaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida, shuningdek ayollarning ham O'zbekistondagi o'rni, qadr-qimmat, nimalarga qodirligi, rivojlanayotgan davrimizda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va tatbiq etilayotgan islohatlar haqida. Shu bilan bir qatorda ularni mahallalardan tortib jamiyatimizda tutgan o'rniga yuqori e'tibor qaratish, rahbar ayollarimizning nimalarga qodirligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, general, polkovnik, UNISEF, leytenant, deputat, vazir

Hozirgi rivojlanayotgan davrimizda inson taraqqiyoti, uning erkinliklari, huquqlari, ijtimoiy faoliyati, uning xavfsizligini ta'minlash borasidagi olib borilayotgan ko'plab islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha sohalarida, jabhalarida tengligini amalda ta'minlash masalalari asosiy vazifalarimizga aylanmoqda. Hozirgi kunda aholi, ayniqsa, xotin-qizlarimizni bandligini ta'minlash, ayollarning faolligini oshirish, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy manfaatlarini himoya qilish va ularni jismoniy, ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Shu bilan bir qatorda, ularni jamiyatdagi mavqei va o'rnini yuksaltirish va ularni jamiyatimizning har jabhalarida ko'raolishimiz buning yorqin misollaridir.

Biz nafaqat hozirgi hayotimizga, aksincha tarixga ham nazar tashlaydigan bo'lsak insoniyat taraqqiyotiga unitilmas va beqiyos hissasini qo'shgan buyuk ajdodlarimizni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug'vor ishlarga ruhlantirib, kamarbasta bo'lgan oqila, fozila, dono ayollarimiz, onalarimizni ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki har qanday davlat va jamiyatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli davlat, jamiyat va xalq ekanligini, uning ayollariga xotin-qizlariga bo'lgan munosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilanadi.

"Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash-islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir..." deb ta'kidlaydilar Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Xotin qizlarimizning davlat va jamiyatimizning yuksalishi va uning boshqaruvidagi rolini kuchaytirishimiz tufayli ularning jamiyatdagi tutgan o'rni yuksaladi. Buning yaqqol nanunasi sifatida ayollarimizning dunyo olimpiadalarida yutuqlari; sportchi ayol, eng bilimdon ayol, xalq a'lochisi, direktor, mo'tabar ayol, olima, adiba, tadbirkor ayollarimiz va siyosiy hayotda esa senator ayol, deputat vazir, rahbar ayollarimizning soni oshib borishidir. Gender tengligini targ'ib qilish mobaynida shuni ham ko'rishimiz mumkin; "Polkovnik", "General", "Leytenant", "Serjant" kabi unvonli xotin qizlar ham kam emasligi har bir o'zbek ayolini ruhlantiradi.

Biz bugun yetakchi lavozimlarda ko'rayotga ayollar avvalo ta'lim olish resurslaridan foydalanish va ishga joylashish borasida imkoniyatlarga ega bo'lgan. Keling bugungi kunda ha o'zbekistonda yosh ayollar uchun ana shunday imkoniyatlarni yarataylik deydi UNISEF ning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade. Qizlar va ayollar farovonligi

borasida ancha yutuqlarga erishilgan bo'lsada keng imkoniyatlar yaratish uchun hali ko'p ishlar qilinishi lozim.[1]

Yurtimizda olib borilayotgan tadqiqotlarga ko'ra kam ta'minlangan "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalardagi xotin qizlar oliy ma'lumotli bo'lishlari uchun grantlar sonini va o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'yish uchun imtiyozli foizsiz kreditlar sonini ko'paytirish va ularni qo'llab-quvvatlash muhim bo'lib bu istiqbollashib borayotgan jamiyatning yanada barqaror va mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Ikki yarim yil oldin hukumat 16 ta barqaror rivojlamish maqsadlarini va 2030-yilga qadar erishish kerak bo'lgan 127ta milliy maqsadlarni qabul qildi. Gender tengligi to'g'risidagi barqaror rivojlanish maqsadlari 5-bandini O'zbekiston quyidagilarni o'z zimmasiga oldi.

- Hamma jabhada ayollar va qizlarga nisbatan kamsitilishning barcha turlarini tugatish;
- Davlat va xususiy sektorda ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha turlarini yo'q qilish;
- Jamiyat hayotida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini, barcha darajada yetakchilik uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash;
- Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tengligini tamoyillarini to'liq aks ettirish.[2]

Ko'rinib turganidek, dunyoda bo'lib bu o'tayotgan ko'plab rasmiy uchrashuvlar, missiyalarda davlatimiz ham yetakchilik qilmoqda va o'zining milliy gender tengligi strategiyasi ishlab chiqishini qo'llab quvvatlamokda. Qizlar va ayollar farovonligi borasida ancha yutuqlarga erishilgan bo'lsa lekin ularning tengligi bo'yicha biroz kamchiliklarimiz bor. Ya'ni bizning mentalitetimizda o'zbek ayollarining ojizligi va erkak kishidan past bo'lishi nazariyasi ilgari suriladi. To'g'ri qaysidir ma'noda ayollarimiz erkak kishidan bir pog'ona past bo'lishi kerak biroq jamiyatimizda teng huquqqa ega bo'lishlari, jismonan ulardan sust bo'lsa ham lekin aqlan ulardan kuchlidir. Ularni ish bilan ta'minlashni kuchaytirish, mehnat bozoriga jalb qilishni keng targ'ib qilish kerak. Ba'zi ayollarimiz juda ham uy ishlariga berilib ijtimoiy dunyodan uzilib qolishgan, shu sababli ularni ijtimoiy hayotga qaytarish, globallashtan davrimizda texnologiyalardan, Internet tarmoqlaridan foydalanishni yo'lga qo'yishimiz lozim.

Prezidentimizning tegishli farmoniga muvofiq, 2022/2023-o'quv yilidan:

- oliy ta'lim muassasalarida, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish uchun banklarga budjetdan har yili 1,8 trillion so'm yo'naltiriladi;
- davlat oliy ta'lim muassasalarida magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi va bunga har yili kamida 200 milliard so'm ajratiladi;
- xorijiy oliy ta'lim muassasalariga bakalavriat uchun — 50 nafar, magistratura uchun — 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratiladi;
- har yili 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy budjetdan to'lab beriladi;

- mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlar har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta'lim muassasalariga umumiy kvotadan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi;
- davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib boriladi[3]

Mana bunday islohotlar xotin-qizlarimizga bo'lgan yuksak e'tiborni yana bir yorqin ko'rinishi. Davlatimizning nafaqat xotin qizlarga balkim barcha jamiyatimiz vakillari uchun yaratayotgan imkoniyatlari cheksiz. Shu boisdan har bir o'zbek xalqimiz ushbu imkoniyatlardan oqilona va unumli foydalanishi va qadriga yetishi lozim. Hozirgi kunda ko'proq chekka hududlarga e'tiborni kuchaytirish va uyerdagi aholini ish bilan bandligini ta'minlashni ham ilgari surgan bo'lardim. Qishloq joyda yashayotgan xotin-qizlar uchun ham tadbirkorlik faoliyatlarini yuksaltirish, sut va sut mahsulotlarini, tuxum va foydali mahsulotlarini yetishtirib chiqadigan zavodlarni yaratilishi, chekka-chekka joylardagi ayollarni ham jalb qiladi. Ba'zi chekka hududlardagi talantli va bilimli yosh qizlarni shahar joylarga kelib o'qishini, hunar o'rganishini ko'pchilik ota-onalar xohlamaydilar va erta yoshdan ularni turmush qurishga majbur qilishyabdi. Bunday vaziyatlarda nafaqat shahar hududidagi balki, shahardan chekka bo'lgan qishloq joylarda ham psixologlarimiz, erta turmushni oldini olishga ma'sul bo'lgan xodimlarimiz va Xalq a'lochilarimiz borib, ota-onalarimiz bilan davra suhbatlari o'tkazishlari va yoshlarni ko'proq o'qish va hunar o'rganib o'zlari uchun kelajakda yaxshi hayot yarataolishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratib berishlari kerak. Bundan tashqari bunaqa ota-onalar bilan mahalla faollari va vakillari har haftalik suhbatlar o'tkazib turishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Prezidentimiz mahallalarga yoshlar bilan ishlash bo'limlarini yaratilishi va yoshlar yetakchilarini sonini oshirishni keng targ'ib qilmoqdalar. Bundan ko'rilgan asosiy maqsad albatta yoshlarni bo'sh vaqtlarini bekor o'tkazmaslik, besar yurmasliklari, har xil qing'ir ishlarni qilmasliklarini oldini olishdir. Bunga qo'shimcha tarzda chekka hududlarda moliyaviy jihatdan ko'p qimmat bo'lmagan Davlat tasarrufidagi yoki xususiy maktabgacha ta'lim muassasalarini bunyod etilish va uyerda yaxshi kadrlarni ish faoliyatlarini olib borishlari uchun shart-sharoitlarni yaratilishi-kelajagimizning asosiy tayanchi bo'lgan bolalarimizni yetuk bir inson bo'lib yetishib chiqishiga fundement bo'la oladi deb o'ylayman va shu bilan birga uyerdagi vaqtinchalik ishsiz yoki moddiy ko'makka muhtoj bo'lgan o'rta yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan ayollarimizni ish bilan bandligini ta'minlay olishimiz mumkin.

Dunyoning eng qashshoq mamlakatlarida qizlarning 50% o'rta maktabga bormaydi. Shunga qaramay, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, qizlarning qo'shimcha ta'lim ularning shaxsiy daromadini 15 % ga oshiradi. Ayollar ta'limini yaxshilash va shu bilan birga ayollarning daromad olish salohiyatini yaxshilash o'z farzandlarining turmush darajasini yaxshilaydi. Chunki ayollar o'z daromadlarini erkaklarnikiga qaraganda ko'proq o'z oilalariga sarflaydilar.[4]

Haqiqatdan ayol – nozik xilqat sohibasi mehribon, har bir narsani to'g'ri va egri, yaxshi va yomon tomonlarini o'ylaydigan, vijdonli xususiyatlar egasidir. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, albatta ayollar ish jarayonida rahbarlik lavozimida faoliyat ko'rsatganda yoki rahbarlar yonida faoliyat olib borganda ish samaradorligini oshishi va barcha uchun foydali

bo'lishini bilishimiz mumkin. Ayollarning yetakchilik usullari erkaklardan tubdan farq qiladi, ya'ni, ular ko'proq hamkorlik qiladi va jamiyat fikriga quloq tutishadi. Ayol kishi hokimiyatda bo'lsa har biur olgan qarorida bolalari, nevaralari taqdirini o'ylaydi" – deydi Irlandiyaning sobiq prezidenti Meri Robinson.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 22-yanvar kuni bo'lib o'tgan xalq deputatlari Buxoro viloyati kengashini navbatdan tashqari sessiyasida ayol rahbar bo'lgan tumanlarda adolat bayrog'i boshqacha hilpiraydi. "Ayollar ishlagan rahbarlik qilgan joylarda tartib, adolat, halollik, madaniyat yuqori bo'lishi hech kimga sir emas. Shu bois har bir vazirlik davlat kompaniyalari, bank va boshqa idoralarda bir ikki yil ichida o'z tizimidagi ayollarini rahbarlikka o'qitib kamida 1 nafar o'rinbosarini ham ayollardan qo'yadi". deb takidlaydilar.[5]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak xotin-qizlar uchun yaratilgan imkoniyatlar va olib borilayotgan islohotlarning chek chegarasi yo'q. Ushbu holatlarni amalga oshirilishi jamiyatimizda ayollarni roli muhimligidan dalolat beradi. Meni fikrimcha har bir yosh avlod, har bir ayollarimiz ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. "Yuksalish" harakati davlat idoralarida faoliyat yuritayotgan istiqbolli rahbarlarimiz Xalqaro markazi direktori Diana Bayzakova, Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari Dilnozaxon Kattaxanova, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablarni rivojlantirish agentligi direktori Xilola Umarovalar kabi rahbar ayollarimiz ortidan ketsak ular uddalay olgan ishlarni va erishgan yutuqlarga biz ham erishsak O'zbekistonimiz gullab yashnaydi va yuksaladi. Va shu bilan bir qatorda ilm-fan, innovatsion texnologiyalar rivojlanayotgan davrda, biz xotin-qizlar ham rivojlanib, o'zimiz uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalansak, yetuk salohiyatli "ona" yoki "pedagog" bo'laolsak, albatta, yaxshi tarbiyalidan kuchli bilim egalarini va kuch-g'ayratga to'la kadrlarni yetishtirib chiqaolamiz. Men xohlaymanki, bir kuni mening ham ism-sharifim yonidan "Deputat", "Senator" yoki "Vazir" kabi atamalar ishlatilishini va shu kunlarga yetishmoq uchun albatta harakatdan to'xtamayman va o'qiyman.

References:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Статья в журнале «Молодой ученый» <https://moluch.ru/archive/107/25687/>